



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATIIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-iyundagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyul)

63,5%



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi**

4 705,1
ming so'm



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi**

60,6%




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1- avgust holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-iyul)

47,1%




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

56,5% (1- avgust holatiga ko'ra)

2024



Jami faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

2020



49,8%

Soni, birlikda

2024

8 945

2023

9 348

2022

11 091

2021

9 825

2020

7 980

Soni, birlikda

2024

1 307

2023

1 241

2022

1 455

2021

1 304

2020

1 083

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-iyul)

2024

46,0%



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi


2020



47,9%


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyul)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-iyul)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyul)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Jizzax viloyati¹⁾	7 126,4	100,0	114,7
Jizzax sh.	3 436,1	48,2	121,9
tumanlar:			
Arnasoy	113,2	1,6	100,4
Baxmal	477,4	6,7	104,9
G'allaorol	615,5	8,6	129,9
Sharof Rashidov	781,8	11,0	108,0
Do'stlik	185,3	2,6	106,6
Zomin	502,6	7,0	108,9
Zarbdor	206,5	2,9	101,1
Zafarobod	104,9	1,5	102,2
Mirzacho'l	144,8	2,0	100,0
Paxtakor	249,0	3,5	103,4
Forish	269,0	3,8	103,0
Yangiobod	40,3	0,6	104,1

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyul)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-iyul)


	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Jizzax shahri	17 459,9	119,4%
G'allaorol	3 277,4	127,1%
Sharof Rashidov	3 198,7	105,3%
Paxtakor	3 062,3	101,3%
Baxmal	2 785,1	102,6%
Zomin	2 782,7	106,3%
Forish	2 725,2	101,5%
Do'stlik	2 640,3	104,9%
Mirzacho'l	2 604,4	98,3%
Arnasoy	2 315,7	99,0%
Zarbdor	2 171,9	99,0%
Zafarobod	1 946,1	100,3%
Yangiobod	1 348,6	102,7%

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyul)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **60,6** foizni, shu jumladan, **26,2** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-iyul)




Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyul)


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	7 126,4	100,0	114,7
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	297,6	4,2	114,7
Moliyaviy xizmatlar	1 584,7	22,2	101,4
Transport xizmatlari	899,1	12,6	113,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	859,0	12,1	110,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	229,2	3,2	110,1
Savdo xizmatlari	2 605,7	36,6	131,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	146,0	2,0	118,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	265,5	3,7	113,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	134,0	1,9	104,7
Ijara xizmatlari	96,2	1,4	105,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	162,6	2,3	109,0
Shaxsiy xizmatlar	186,8	2,6	106,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	89,6	1,3	103,5
Boshqa xizmatlar	429,4	6,0	101,0

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyul)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul, mlrd so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-iyul)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-iyulida 92,9** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **71,8** foizni yoki **1 138,1** mlrd so'mni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan Jizzax viloyatida yuqori o'sish sur'ati **114,1** foizni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-iyul

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **53,6** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyul)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-iyul)



Jizzax shahri	1 135,7	+54,0%
G'allaorol	364,7	+63,9%
Sharof Rashidov	215,7	+12,8%
Baxmal	204,4	+8,7%
Zomin	182,1	+11,4%
Forish	100,0	+10,3%
Paxtakor	80,8	-14,1%
Do'stlik	78,8	+10,6%
Zarbdor	78,2	+9,6%
Mirzacho'l	52,3	+6,3%
Arnasoy	50,4	+9,9%
Zafarobod	42,3	+8,6%
Yangiobod	20,3	+8,7%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi

Transport xizmatlari-ning umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **95,5** foiz.

Sharof Rashidov tumanida transport xizmatlari hajmi **297,8** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **113,0** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyul)



Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

⚙ O'sishi (kamayishi)

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-iyul) ¹⁾

2024- yilning yanvar-iyul oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **859,0** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,1** % ni tashkil etdi.



Sharof Rashidov	275,0	+10,0%
Jizzax shahri	165,0	+9,9%
Forish	79,4	+9,0%
Zomin	76,5	+9,2%
Baxmal	73,7	+9,0%
G'allaorol	68,9	+9,9%
Do'stlik	32,8	+58,1%
Zarbdor	29,8	+7,4%
Paxtakor	24,6	+8,7%
Zafarobod	11,9	+7,4%
Mirzacho'l	10,5	+8,2%
Arnasoy	5,9	+7,2%
Yangiobod	5,0	+6,2%

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

(2024- yil yanvar-iyul)



2024- yil yanvar-iyul oylarida yuk avtomobil transporti xizmatlari ulushi **55,0** foizga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yo'lovchilarni xizmatlarining ulushi **45,0** foizni tashkil etdi


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyul)




Aloqa va axborot-

lashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-iyul** oylaridagi ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyul)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-iyul** oylaridagi ulushi **77,3** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul, mlrd so'mda)

Jizzax shahri	231,0
Zomin	7,5
Sharof Rashidov	5,7
Do'stlik	4,6
G'allaorol	3,8
Baxmal	3,7
Zarbdor	2,4
Paxtakor	2,0
Zafarobod	1,3
Arnasoy	1,2
Forish	1,1
Mirzacho'l	1,0
Yangiobod	0,2



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Jizzax shahriga to'g'ri keladi. **2024- yilning yanvar-iyul** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmat hajmi **231,0** mlrd so'mga yetdi yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **87,0** foiziga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyul)

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-iyul** oylaridagi ulushi **71,8** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **20,6** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **7,6** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul)

Jizzax shahri	78,8	+4,3%
Zomin	39,6	+6,2%
G'allaorol	3,8	+3,3%
Baxmal	3,1	+6,1%
Sharof Rashidov	2,6	+2,3%
Mirzacho'l	1,3	+1,2%
Do'stlik	1,0	+1,9%
Paxtakor	1,0	+1,5%
Yangiobod	0,9	+1,2%
Forish	0,9	-0,8%
Arnasoy	0,5	+2,6%
Zarbdor	0,3	+1,2%
Zafarobod	0,2	+0,2%

Hajmi, mlrd so'mda O'sishi

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾


(yanvar-iyul)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **99,8** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-iyul)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyul)

2024- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **3,2 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **87,8** foiz.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar


(2024- yil yanvar-iyul)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyul)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul, mlrd so'mda)




2024-yilning yanvar-iyul oylarida ijara xizmatlari hajmi **96,2** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **81,7** foizni tashkil etadi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyul)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 22,2 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul)

Jizzax shahri	54,6	+6,0%
Sharof Rashidov	23,7	+11,7%
G'allaorol	16,5	+11,1%
Zomin	12,9	+10,7%
Baxmal	10,4	+10,7%
Paxtakor	8,9	+10,9%
Do'stlik	8,0	+10,8%
Forish	7,6	+9,5%
Arnasoy	6,0	+8,8%
Mirzacho'l	5,8	+9,6%
Zarbdor	4,1	+9,3%
Zafarobod	3,1	+8,2%
Yangiobod	1,0	+9,1%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda O'sishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyul)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul, mln so'mda)

Jizzax shahri	78 997,1
Sharof Rashidov	6 089,0
Arnasoy	2 205,1
Baxmal	1 272,4
Zomin	540,9
G'allaorol	239,7
Forish	172,8
Do'stlik	37,9
Zafarobod	16,0
Mirzacho'l	4,8



2024- yilning yanvar-iyul oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **89,6** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **88,2** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.